RAQAMLI JAMIYATDA “MOTIVATSIYA, KO‘NIKMA VA MOLIYAVIY KO‘MAK” TIZIMINING INTEGRATIV XUSUSIYATLARI

Husenov Sirojiddin Visoliddin o‘g‘li
UzMU, mustaqil izlanuvchi
ye-mail: sirojiddin_husenov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada «motivatsiya, ko‘nikma va moliyaviy ko‘mak» tizimining integrativ xususiyatlari hamda uning aholi tadbirkorlik faolligini oshirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu uch komponentning o‘zaro mutanosibligi, bir-birini to‘ldirishi va kuchaytirishi oilaviy tadbirkorlik barqarorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, tizim integratsiyasini baholashda motivatsiya, ko‘nikma va moliyaviy indekslarning o‘rni, oilaviy tadbirkorlik rivojlanishiga gender va yosh omillarining ta’siri, mahalliy ishlab chiqarish zanjirlari bilan kooperatsiyalashuv, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish hamda olingan daromadlarni qayta investitsiyalash masalalari yoritilgan. Global iqtisodiy beqarorlik sharoitida mazkur integrativ modelning oilaviy tadbirkorlik barqarorligini ta’minlash, aholi iqtisodiy faolligini oshirish va ijtimoiy farovonlikni yuksaltirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, ko‘nikma, moliyaviy ko‘mak, integrativ tizim, oilaviy tadbirkorlik, tadbirkorlik faolligi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy kapital, gender munosabatlari, yosh omili, raqamli ko‘nikmalar.

Аннотация. В статье научно-теоретически и практически анализируются интегративные особенности системы «мотивация, навыки и финансовая поддержка», а также её социально-экономическое значение в повышении предпринимательской активности населения. Обосновано, что взаимосогласованность, взаимодополняемость и синергетическое взаимодействие данных трёх компонентов выступают важными факторами обеспечения устойчивости семейного предпринимательства. Раскрыта роль индексов мотивации, навыков и финансовой обеспеченности в оценке интеграции данной системы, рассмотрено влияние гендерных и возрастных факторов на развитие семейного предпринимательства. Особое внимание уделено вопросам кооперации с местными производственными цепочками, освоения инновационных технологий, формирования культуры реинвестирования полученных доходов и повышения финансовой грамотности. Раскрыты возможности интегративной модели в обеспечении

DOI: 10.5281/zenodo.24240590

устойчивости семейного предпринимательства, повышении экономической активности населения и укреплении социального благосостояния в условиях глобальной экономической нестабильности.

Ключевые слова: мотивация, навыки, финансовая поддержка, интегративная система, семейное предпринимательство, предпринимательская активность, социально-экономическая устойчивость, социальный капитал, гендерные отношения, возрастной фактор.

Abstract. This article provides a scientific, theoretical and practical analysis of the integrative characteristics of the “motivation, skills and financial support” system and its socio-economic significance in enhancing entrepreneurial activity among the population. It substantiates that the balance, complementarity and synergistic interaction of these three components are essential factors in ensuring the sustainability of family entrepreneurship. The article examines the role of motivation, skills and financial indices in assessing the integration of the system, as well as the influence of gender and age factors on the development of family entrepreneurship. Particular attention is paid to cooperation with local production chains, the adoption of innovative technologies, the development of reinvestment practices and the improvement of financial literacy. The study also explores the potential of this integrative model to strengthen family business sustainability, increase the economic activity of the population and improve social well-being in the context of global economic instability.

Keywords: motivation, skills, financial support, integrative system, family entrepreneurship, entrepreneurial activity, socio-economic sustainability, social capital, gender relations, age factor, digital skills.


Ijtimoiy harakatning tizimli muvaffaqiyatini belgilovchi bosh nazariy-amaliy qonuniyatdir. Elementlarning ichki mutanosibligi, ularning bir-birini kuchaytirishi va tashqi institutsional muhit bilan uzviy bog‘liqligi kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy farovonlikni yuksaltirishning eng maqbul modelini ifodalaydi. Mazkur model faqatgina bugungi kunning iqtisodiy muammolarini hal etib qolmay, balki kelajak avlodlar uchun ham mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy platforma va sog‘lom tadbirkorlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oilaviy tadbirkorlik barqarorligi bevosita ushbu uchlik komponentlarining ichki transformatsiyalashuv tezligi va ularning jamiyatdagi yangi iqtisodiy voqelikka moslashuv darajasi bilan belgilanadi. Elementlar integratsiyasi sodir bo‘layotgan ijtimoiy muhit statik holatda emas, balki doimiy rivojlanish va tashqi ta’sirlar ta’sirida dinamik harakatda bo‘ladi. Oila xo‘jaligi ichidagi ijtimoiy

determinantlarni tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, motivatsiyaning rivojlanishi faqat moddiy Ehtiyojlarni qondirish bosqichidan ijtimoiy mas’uliyat va barqarorlik bosqichiga o‘tish orqali namoyon bo‘ladi. Bu ichki Evolyusiya ko‘nikmalarning oddiy texnik ijrochilikdan strategik boshqaruv darajasiga ko‘tarilishini talab etadi. Moliyaviy ko‘mak esa o‘z navbatida ushbu sifat o‘zgarishlarini kapital aylanishining kengaytirilgan shakllari bilan ta’minlab berishi lozim.

Sotsiologik tahlillar doirasida ushbu triadaning integratsiyalashuv darajasini baholash uchun maxsus sifat va miqdor ko‘rsatkichlari tizimi qo‘llaniladi. Bunda oilalarning iqtisodiy xulq-atvori faqatgina statistik hisobotlardagi raqamlar bilan emas, balki ularning ijtimoiy maqsadlari, muammolarni hal etish strategiyalari va ijtimoiy optimizm darajasi orqali o‘rganiladi. Triadaning integrativlik indeksi quyidagi muhim yo‘nalishlarning o‘zaro mutanosibligi asosida aniqlanadi:

TRIADA INTEGRATSIYASI



[Motivatsiya indeksi] [Ko‘nikma indeksi] [Moliyaviy indeks]

- Ijtimoiy optimizm; - Raqamli malaka; - Kapital unumdorligi;
- Tavakkalga tayyorlik; - Moliyaviy savodxonlik; - Defolt xavfining pastligi; - Mustaqillik darajasi; - Boshqaruv sifati; - Qayta investitsiya ulushi.

Ushbu uchta indeksning o‘zaro mutanosib o‘sishi ijtimoiy harakatning real samaradorligini aks ettiradi. Agar ko‘rsatkichlardan biri, masalan, moliyaviy indeks yuqori bo‘lib, motivatsiya va ko‘nikma indekslari quyi darajada qolsa, bu tizimning sun’iy ravishda ushlab turilganligidan va tashqi dotatsiyalarga qaramligidan dalolat beradi. Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda bunday holat “institutsional tuzoq” (institutional trap) deb ataladi va u ijtimoiy dasturlarning uzoq muddatli istiqbolda muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga olib keladi. Samarali integratsiya barcha indekslarning bir tekisda, bir-birini taqozo etgan holda yuksalishini nazarda tutadi.

Empirik kuzatishlar va sotsiologik so‘rovnomalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, oila ichidagi gender munosabatlari va yosh omili triada komponentlarining o‘zaro ta’siriga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘p avlodli an’anaviy oilalarda qaror qabul qilish tizimining markazlashganligi dastlabki bosqichda kuchli ichki nazorat va motivatsiyani ta’minlashi mumkin, biroq yangi raqamli va texnologik ko‘nikmalarni joriy etishda konservatizm to‘sig‘ini yuzaga keltiradi. Zamonaviy ijtimoiy harakat modellari oila ichidagi mehnat taqsimotini demokratlashtirish, yoshlarning innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash va ayollarning moliyaviy mustaqilligini oshirish orqali ushbu tizimli ziddiyatlarni

bartaraf etishga qaratilgan. Bu esa ichki ijtimoiy kapitalning moslanuvchanligini oshiradi.

Integratsiya jarayonining yana bir muhim jihati “motivatsiya, ko‘nikma va moliya” modelining mahalliy ishlab chiqarish zanjirlari (klasterlar) bilan uzviy bog‘lanishidir. Kichik xonadonlar o‘zlarining cheklangan resurslari bilan mustaqil ravishda yirik bozorlarga chiqishi va uzoq muddat raqobatdoshlikni saqlab qolishi mushkul. Shu sababli, tizim komponenti hisoblangan moliyaviy ko‘mak faqatgina individual ishlab chiqarishni Emas, balki oilalarning o‘zaro kooperatsiyalashuvini, kichik uyushmalar va kooperativlar shakllantirishini rag‘batlantirishi lozim. Bunday sharoitda ko‘nikmalar transferi individual darajadan jamoaviy darajaga o‘tadi, ya’ni mahalla ichida tajriba va bilimlarning erkin aylanishi sodir bo‘ladi.

Qishloq hududlarida agrar sohadagi oilaviy tadbirkorlikni tahlil qilganda, triadaning integrativ xususiyati tabiiy va iqlim omillariga moslashish kontekstida namoyon bo‘ladi. Suv resurslarining cheklanganligi yoki Yer maydonlarining taqchilligi sharoitida an’anaviy dehqonchilik motivatsiyasi o‘z-o‘zidan inqirozga yuz tutadi. Bunday vaziyatda tizimning ikkinchi elementi – ko‘nikmalarni mutlaqo yangi yo‘nalishga, ya’ni intensiv texnologiyalar, gidroponika yoki tomchilatib sug‘orish usullarini o‘rganishga yo‘naltirish hayotiy zaruratga aylanadi. Davlat tomonidan beriladigan moliyaviy ko‘mak esa aynan ushbu innovatsion ko‘nikmalarni moddiylashtirishga, ya’ni zamonaviy uskunalar sotib olishga xizmat qilgandagina ijtimoiy harakat o‘zining asl maqsadiga erishadi.

Mazkur tizimning barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri – bu iqtisodiy faoliyat natijasida olingan sof daromadning oila ichida qayta taqsimlanish madaniyatidir. Sotsiologik tadqiqotlar daromadlarning iste’mol xarajatlariga (to‘ylar, hashamatli buyumlar xarid qilish) sarflanishi va biznesni kengaytirishga yo‘naltirilishi o‘rtasidagi nisbat bevosita oilaning moliyaviy savodxonlik darajasi va uzoq muddatli motivatsiyasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Integratsiyalashgan yondashuv doirasida aholiga pul mablag‘lari berilish bilan bir vaqtda ularga kapitalni boshqarish, xavflarni sug‘urtalash va strategik rejalashtirish ko‘nikmalarining singdirilishi oilaning boqimandalik muhitidan to‘liq chiqib ketishini kafolatlaydi.

Global iqtisodiy inqirozlar va bozor kon’yunkturasining tez-tez o‘zgarib turishi sharoitida “motivatsiya-ko‘nikma-moliya” triadasi oila uchun ijtimoiy xavfsizlik yostig‘i vazifasini bajaradi. Tashqi mehnat bozorida ish o‘rinlari qisqarganda yoki migratsiya oqimlari kamayganda, ichki oilaviy tadbirkorlik tizimi ishchi kuchini tez fursatda yutib olish va uni ichki ishlab chiqarishga yo‘naltirish qobiliyatiga ega. Bu jarayonda oila a’zolarining ichki birdamligi va ruhiy qo‘llab-

quvvatlashi (ijtimoiy-psixologik motivatsiya) tashqi iqtisodiy zarbalarni yumshatuvchi eng asosiy institutsional vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. 6-tom. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. M 54 – Toshkent: “Ozbekiston” nashriyoti, 2023. – B.536.

2. Mirziyoev Sh.M. 7-tom. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. M 54 – Toshkent: “Ozbekiston” nashriyoti, 2023. – B.408.

3. Mirziyoev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – B.416.

4. Mirziyoev Sh.M. YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B.464.